

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

|                                                                                                                                                       |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>U.I.Nosirova, L.A.Ernazarova</b>                                                                                                                   |     |
| Nasriy matnlardagi sintaktik-stilistik figuralarning pragmatik jihatlari .....                                                                        | 212 |
| <b>O.I.Yadgarova</b>                                                                                                                                  |     |
| Shaxsni o'rganishda projektiv metodikalarning afzalliklari tahlili .....                                                                              | 216 |
| <b>O.M.Xalimova, A.A.Xusanov</b>                                                                                                                      |     |
| Ovoz buzilishlari: ovoz buzilishlarini turlari va kelib chiqish sabablari .....                                                                       | 221 |
| <b>D.X.Turdiboev</b>                                                                                                                                  |     |
| O'quvchilarning matematik savodxonligini oshirishda tanqidiy fikrlash ko'nikmasini<br>ahamiyatlilik darajasi .....                                    | 224 |
| <b>Sh.D.Ismoilov</b>                                                                                                                                  |     |
| O'smir yoshdagi o'g'il bolalarni hayotga tayyorlash kompetensiyasini<br>shakllantirishning tamoyillari .....                                          | 227 |
| <b>S.A.Yaxyayeva</b>                                                                                                                                  |     |
| Yoshlarda estetik madaniyatni rivojlantirishning tarixiy zaruriyati va mafkuraviy asoslari .....                                                      | 231 |
| <b>B.B.Nizomova, O.T.Sobirov, G.G'.Xomidova</b>                                                                                                       |     |
| Maktab 7-sinf biologiya darsligidagi "Bakteriyalar. Protistalar. Zamburug'lar"<br>mavzusida tabiiy fanlar integratsiyasini ta'limdagi ahamiyati ..... | 236 |
| <b>G'.B.Samatov.S.Mo'minjonov</b>                                                                                                                     |     |
| Ikki atomli gazlarda tebranma-ilgarilanma energiya almashinish ehtimolligini hisoblash .....                                                          | 248 |
| <b>X.R.Saidova</b>                                                                                                                                    |     |
| Ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini nazorat qilish va baholash mexanizmlari .....                                                                   | 254 |
| <b>J.B.Hamraqulov</b>                                                                                                                                 |     |
| Talabalarda ekologik axloqiy kompetentlikni shakllantirish imkoniyatlari .....                                                                        | 259 |
| <b>Sh.H.Yusupaliyeva</b>                                                                                                                              |     |
| Texnik oliy o'quv yurtlarida chet til darslarini tashkillashtirishda o'g'zaki nutq<br>kompetensiyasini samarali qo'llash usullari .....               | 263 |
| <b>X.R.Umarov</b>                                                                                                                                     |     |
| O'quvchilarda jinoyat va jazo tushunchalariga doir bilimlarni rivojlantirish ijtimoiy<br>zarurat sifatida .....                                       | 266 |
| <b>X.M.Madazimov</b>                                                                                                                                  |     |
| Bir hikoya talqinida bosh qahramon qiyofasi .....                                                                                                     | 274 |
| <b>B.T.Yunusaliyev</b>                                                                                                                                |     |
| Modus kategoriyasining modallilikni o'rganishdagi ahamiyati. ....                                                                                     | 277 |
| <b>K.I.Qosimov</b>                                                                                                                                    |     |
| Abdulla Qodiriy – XX asr geniysi .....                                                                                                                | 280 |
| <b>M.A.Xusanova, M.A.Xusanova</b>                                                                                                                     |     |
| Somatik kodlar tadqiqiga doir .....                                                                                                                   | 287 |
| <b>M.O.Rahimova</b>                                                                                                                                   |     |
| O'zbek tilida leksik nomemalar .....                                                                                                                  | 290 |
| <b>N.S.Qobilova, M.T.Hojiyeva</b>                                                                                                                     |     |
| Umumiy taqiqlovchilar va ularning komponentlari .....                                                                                                 | 293 |
| <b>A.M.Rasulova</b>                                                                                                                                   |     |
| To'siqsizlik munosabatining jahon tilshunosligida o'rganilishi .....                                                                                  | 297 |
| <b>Z.V.Alimova, U.A.Soxibova</b>                                                                                                                      |     |
| Frazeologik birliklar va ularning semantik tahlili .....                                                                                              | 300 |
| <b>I.I.Akramov</b>                                                                                                                                    |     |
| Aforizmlarni pragmatik tushunish aspektlari .....                                                                                                     | 305 |
| <b>B.A.Yunusova</b>                                                                                                                                   |     |
| Kombinator leksikografiya – tilshunoslikning nazariy va amaliy asosi .....                                                                            | 310 |
| <b>Z.H.Usmonova</b>                                                                                                                                   |     |
| Rey Bredberining "Marsga Hujum" ("the martian chronicles") asari bilvosita tarjimasida tarjima<br>usullari va o'ziga xos xususiyatlari .....          | 315 |
| <b>A.M.Mamarasulov</b>                                                                                                                                |     |
| Osmon va yer tushunchalarining qiyosiy semantik tadqiqi .....                                                                                         | 319 |
| <b>L.X.Badalova</b>                                                                                                                                   |     |
| Ingliz tilini chet tili sifatida o'rgatishda storytelling yondashuvining ahamiyati .....                                                              | 322 |

**FONETIK HODISALAR VA TOVUSH O'ZGARISHLARINING BADIY-ESTETIK  
VAZIFALARI (ANVAR OBIDJON SHE'RIYATI MISOLIDA)**

**ХУДОЖЕСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКИЕ ФУНКЦИИ ФОНЕТИЧЕСКИХ ЯВЛЕНИЙ И  
ЗВУКОВЫХ ИЗМЕНЕНИЙ (НА ПРИМЕРЕ ПОЭЗИИ АНВАРА ОБИДЖАНА)**

**ARTISTIC AND AESTHETIC FUNCTIONS OF PHONETIC PHENOMENA AND SOUND  
CHANGES (BY THE EXAMPLE OF ANVAR OBIDJAN POETRY)**

**Ortikova Nargizaxon Yoqubjonovna<sup>1</sup>**

**<sup>1</sup>Ortikova Nargizaxon Yoqubjonovna**

– Farg'ona davlat universiteti, tadqiqotchi  
Farg'ona tuman 63-o'rta maktab Ijodiy-madaniy  
masalalar bo'yicha targ'ibotchi

**Annotatsiya**

*Fonopoetika bugungi kunda lingvopoetik tadqiqotlarning bir qismi sifatida alohida tadqiqni talab etadigan sohalaridan biridir. Keyingi yillarda qilingan lingvopoetik tadqiqotlarning deyarli har birida qaysidir ma'noda fonopoetik tahlillar qilinganligi fonopoetika lingvopoetik tadqiqotlarning uzviy bir qismi hamda alohida tadqiqot sohasi ekanligiga dalolatdir. Badiiy tasvirda she'rning mazmuni, ritmiga mos holda ishlatilgan fonopoetik vositalar kitobxon hissiyotiga kuchli ta'sir qiladi. So'zda konnotativ ma'no fonetik vositalar bilan ham darajalanib borish xususiyatiga ega. Ushbu maqolada badiiy matnda unli yoki undoshlarni birdan ortiq yozish, ya'ni fonografik usullardan foydalanish mahorati lingvopoetik tahlilga tortildi. Tadqiqot ob'ekti: A.Obidjonning she'riy asrlari matni. Tadqiqot predmeti: Badiiy asar matnidagi fonografik birliklarning lingvopoetik xususiyatlari. Tadqiqot metodi: til satxlari birliklarining sistem-struktur tahlillari. Ushbu tadqiqotning ob'ekti bo'lgan A.Obidjon she'riyatida misolida muallifning fonografik usullardan foydalanish mahorati tadqiq qilindi.*

**Аннотация**

*Фонопоэтика является одним из направлений, требующих специального изучения в рамках лингвопоэтических исследований. Тот факт, что практически каждое лингвопоэтическое исследование, проводимое в последние годы, в том или ином смысле включает в себя фонопоэтический анализ, свидетельствует о том, что фонопоэтика является составной частью лингвопоэтических исследований и отдельной областью исследований. Фонопоэтические средства, используемые в художественном образе в соответствии с содержанием и ритмом стихотворения, оказывают сильное воздействие на чувства читателя. Коннотативное значение слова имеет характеристику ступенчатости с помощью фонетических средств. В данной статье лингвопоэтическому анализу подвергся навык написания более одной гласной или согласной в художественном тексте, т. е. навык использования фонографических приемов. Объект исследования: текст поэтических эпох А. Абиджана. Предмет исследования: лингвопоэтические особенности фонографических единиц в тексте художественного произведения. Метод исследования: системно-структурный анализ единиц языкового уровня. На примере поэзии А. Абиджана, являющейся объектом настоящего исследования, исследовано умение автора использовать фонографические приемы.*

**Abstract**

*Phonopoeitics is one of the areas requiring special study within the framework of linguistic and poetic research. The fact that almost every linguopoetical research conducted in recent years, in one sense or another, includes phonopoetical analysis, indicates that phonopoeitics is an integral part of linguopoetical research and a separate area of research. The phonopoetic means used in the artistic image in accordance with the content and rhythm of the poem have a strong impact on the reader's feelings. The connotative meaning of the word has the characteristic of stepping with the help of phonetic means. In this article, the skill of writing more than one vowel or consonant in a literary text, that is, the skill of using phonographic techniques, was subjected to linguo-poetic analysis. Object of study: the text of the poetic eras of A. Abidjan. Subject of study: linguistic and poetic features of phonographic units in the text of a work of art. Research method: system-structural analysis of language level units. On the example of the poetry of A. Abidjon, which is the object of this study, the author's ability to use phonographic techniques is investigated.*

**Kalit so'zlar:** lingvopoetika, fonopoetika, fonografik vositalar, fonika, fonostilistika, evfoniya, alliteratsiya, assonans, onomatopeya, qofiya.

**Ключевые слова:** лингвопоэтика, фонопоэтика, фонографические средства, фонетика, фоностилистика, эвфония, аллитерация, ассонанс, звукоподражание, рифма.

**Key words:** linguopoeitics, phonopoeitics, phonographic tools, phonics, phonostylistics, euphony, alliteration, assonance, onomatopoeia, rhyme.

**KIRISH**

Maqolada bugungi o'zbek tilshunosligida lingvopoetika tushunchasi, lingvopoetik tahlil tamoyillari va poetik aktuallashtirilgan til birliklari sifatida fonetik birliklar va ularning badiiyligi taminlash vazifalari haqida so'z boradi. Badiiy tasvirda she'rning mazmuni, ritmiga mos holda ishlatilgan fonopoetik vositalar kitobxon hissiyotiga kuchli ta'sir qiladi. So'zda konnotativ ma'no fonetik vositalar bilan ham darajalanib borish xususiyatiga ega. Ushbu maqolada badiiy matnda unli yoki undoshlarni birdan ortiq yozish, ya'ni fonografik usullardan foydalanish mahorati lingvopoetik tahlilga tortildi. Tadqiqot ob'ekti: A.Obidjonning she'riy asrlari matni. Tadqiqot predmeti: Badiiy asar matnidagi fonografik birliklarning lingvopoetik xususiyatlari. Tadqiqot metodi: til sathlari birliklarining sistem-struktur tahlillari. Ushbu tadqiqotning ob'ekti bo'lgan A.Obidjon she'riyatida misolida muallifning fonografik usullardan foydalanish mahorati tadqiq qilindi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Tadqiqot ob'ekti: A.Obidjonning she'riy asrlari matni. Tadqiqot predmeti: Badiiy asar matnidagi fonografik birliklarning lingvopoetik xususiyatlari. Tadqiqot metodi: til sathlari birliklarining sistem-struktur tahlillari.

Adabiyotlar sifatida M.Yo'ldoshevning "Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari", S.Karimov "O'zbek tilining fonetik stilistikasi", A.Obidjon "Saylanma:she'rlar", A.Obidjon "Qorinbotir" va boshqa lingvopoetik tahlil tamoyillari, fonetik sath birliklarining lingvopoetik tahliliga doir turli monografiya, maqolalar, tilshunoslik lug'atlaridan foydalanildi.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Badiiy til keng qamrovli ob'ekt sifatida funksional darajalangan qismlarga – fragmentlarga bo'linish xususiyatiga ega. Biroq amalda ushbu ob'ektning fragmentlarini badiiy nutq tahliliga beriladi. Badiiy nutq keng qamrovli tushuncha bo'lib badiiy asar tili badiiy nutqning bir ko'rinishidir. U tilning ekspressiv vazifasini o'z ichiga olgani uchun til sistemasining barcha satx birliklarini qamrab oladi. Shundan kelib chiqib, lingvopoetika fonopoetika, leksopoetika, sintaktik poetika kabi turlarga bo'linadi. Lingvopoetikaning vazifasi ushbu sohalarni alohida-alohida o'rganish va ularning o'zaro munosabatlarini ham yoritib berishdan iborat.

Jumladan fonetik-fonologik sathda bir xil tovushlar, bir xil bo'g'inlarning takrorlanib kelib, assonans(bir xil unli takrori), alliteratsiya(bir xil undoshlar takrori) hodisalarini yuzaga keltirishi hamda ta'sirchanlikni yuzaga keltiruvchi vosita sifatida hizmat qilishi o'rganiladi.

Fonopoetika bugungi kunda alohida tadqiqni talab etadigan sohalardan biri bo'lib qolmoqda. Fonopoetika lingvopoetik tadqiqotlarning ayrim qismi sifatida tekshirib o'tilsada, hali monografik planda tadqiq etilgan emas. Keyingi yillarda qilingan lingvopoetik tadqiqotlarning deyarli har birida qaysidir ma'noda fonopoetik tahlillar qilinganligini ko'rish mumkin. Bu esa fonopoetika lingvopoetik tadqiqotlarning uzviy bir qismi hamda alohida tadqiqot sohasi ekanligiga dalolatdir.

Xalqaro miqyosda ham bu sohada hali yetarli darajada tadqiqotlar o'tkazilmagan. Fonopoetika haqida gap ketganda fonetik hodisalar hisoblangan alliteratsiya, assonans, geminasiya, tovush orttirish, tovush tushirish singari hodisalar va ularning badiiy matnda, asosan she'riy asarlarda badiiy ifoda, emosional-ekspressivlik ulashishi kabilar, rifma – qofiyalanishning poetik tomonlariga ko'proq ahamiyat berilgan.

Ifodalilikning fonetik vositalari sifatida I.R.Gal'perin quyidagilarni ko'rsatadi: 1.Onomatopeya; 2.Alliteratsiya; 3.Qofiya; 4.Ritm.[1.113]

Fonika (yunoncha tovush) - badiiy nutqning ovozi tashkil etilishi, shuningdek poetikaning tovush hodisalarini o'rganuvchi bo'limi. Fonika-evfoniyaning asosiy elementi tovush takrori bo'lib, tovush takrori xususiyatiga ko'ra quyidagi turlari mavjud: 1.Alliteratsiya (undoshlar takrori); 2. Assonans (unli takrori); 3.Anafora (so'z boshida tovush va tovush birliklarining takrori); 4.Epifora (so'z oxirida tovush va tovush birliklarining takrori); 5.Onomatopeya.[2.97]

O'zbek tilshunosligida lingvopoetik tadqiqotlar tamoyil va yo'nalishlarini monografik planda tadqiq etgan tilshunos olim M.Yo'ldoshev "Badiiy matn va uning lingvopoetik tadqiqi" asarida badiiy matning fonetik-fonologik xususiyatlari haqidagi fikr yuritarkan, "She'riyatda asosan, alliteratsiya (undoshlar takrori), assonans (unli takrori), geminasiya (undoshlarni qavatlash) kabi fonetik usullardan foydalaniladi. Nasrda unli larni cho'zish, undoshlarni qavatlash, tovushlarni takrorlash, so'zlarni noto'g'ri talaffuz qilish, tovush orttirish yoki tovush tushirish kabi fonetik usullar yordamida ekspressivlik ta'minlanishi haqida ta'kidlaydi.[3.26]

Tilshunoslikda fonetik birliklar, fonetik hodisalar va ularning ekspressivlikka daxldorlik xususiyatlari ular ustida lingvopoetik tadqiqotlar olib borilmagan paytlarda ham o'rganilgan. Hozirda biz fonopoetikaning o'rganish ob'ekti doirasiga olgan fonetik birlik va fonetik hodisalar fonika va fonostilistika sohalaridan tomonidan o'rganilgan. Shunday ekan, ularni fonopoetika degan soha doirasiga olib lingvopoetik tomondan o'rganilishida qanday farq bor, degan o'rinli savol tug'iladi.

Ma'lumki, fonetik stilistika ham tilning fonetik birliklariga xos bo'lgan ekspressivlik xususiyatlarini o'rganadi, "ma'lum bir tildagi barcha fonetik vositalarning ekspressiv tomonlarini o'rganuvchi" sohadir.[5.75]

"Nutq tovushlaridagi emosionallik, ta'sirchanlik, talaffuzdagi jarangdorlik, eshitishdagi yoqimlilik, ularning badiiy qo'llanish qoidalari, estetik roli fonetik stilistikaning o'rganish ob'ektidir".[6.88]

Fonostilistika, "tovushlarning matnlardagi stilistik ottenkalari va emosional-ekspressivlik xususiyatlarini" o'rganadi [7.7], o'z o'rnida fonika "nutq tovushlarining va tildagi boshqa fonetik vositalarning estetik va emosional vazifalarini o'rganadi"[ 9.123].

I.B.Golub «Hozirgi zamon rus tili stilistikasi» nomli asarida tilshunoslikning fonetik sathni o'rganuvchi bo'limlari xususida mulohaza yuritir ekan, fonika va fonostilistikani bir-biridan farqlaydi. "Shuningdek fonika deyilganda nutqni tovush jihatdan tashkil etish, ya'ni fonetik sathdagi til vositlarini ma'lum stilistik maqsadni ko'zlab tanlash va qo'llash tushuniladi. Fonika deyilganda tilning fonetik sathidagi stilistik ahamiyatga ega bo'lgan vositalar ham tushuniladi" tarzidagi fikrini qo'shimcha qiladi.[10.259]

O'zbek tilshunosligida fonostilistika sohasini chuqur o'rgangan tilshunos olim S.Karimov ham o'z tadqiqotlari natijasida haqiqatan fonika va fonostilistika o'rganish ob'ekti nuqtai nazaridan muayyan farqlarga ega ekanligini qayd etadi. Tilshunos olim, "fonostilistika umuman nutqning fonetik jihatdan shakllanishida ma'lum stilistik maqsadlar ko'zda tutilgan jihatlarni, shu bilan birgalikda, nutq tovushlarining funksional-stilistik differensiasiyasini, ya'ni uslublararo xoslanish va qo'llanish xususiyatlarini o'rgansa, fonika poetik va prozaik matnlarni tovush jihatdan tashkil etuvchi ritm, alliteratsiya, tovushga taqlid, rifma, assonans va, hatto, kulgini yoki satirik samaradorlikni hosil qilish maqsadida qilingan nostandart talaffuzlarni" ham o'rganishi haqida ta'kidlarkan, o'z o'rnida ularning "o'rtasiga «xitoy devori» qo'yish tarafdori emasmiz. Payti kelib, ularning umumiy va xususiy jihatlari aniqliklar kiritilar. Hozir esa, kuzatishlar fonostilistika tushunchasi atrofida birlashishi, o'zbek tilidagi fonetik vositalar beradigan ekspressiv ma'no ottenkalari va ularning ma'lum o'rinlarda funksional chegaralanishi xususida mulohaza yuritish bilan chegaralanish yetarli bo'lar, deb o'ylaymiz."[4.15]

Darhaqiqat fonika va fonostilistikaning umumiy va xususiy jihatlari ularning fonopoetika doirasida jamlanishi bilan birlashadi deb aytish mumkin.

Fonopoetikaning o'rganish ob'ekti haqidagi tadqiqotlar va uning doirasida fonostilistika va fonika sohalarining birlashuvi haqidagi fikrlar asosida fonopoetika terminiga, fonopoetika - fonetik hodisalar va tovush o'zgarishlarining badiiy-estetik vazifalari; fonetik usullar yordamida ekspressivlikning ta'minlanishi; poetik va prozaik matnlarni tovush jihatdan tashkil etuvchi ritm, alliteratsiya, tovushga taqlid, rifma, assonans va, hatto, kulgu, g'azab, kinoya, piching, qo'rquv va boshqalarni ifodalash yoki satirik samaradorlikni hosil qilish maqsadida qilingan nostandart talaffuzni aks ettiradigan badiiy nutqni o'rganadi, tarzida izoh berish mumkin deb o'ylaymiz.

Badiiy matnni fonopoetik tahlil qilishda muallif qo'llagan fonografik belgi va ishoralardan foydalanamiz. Og'zaki nutqdan farqli ravishda badiiy asarlarda ruhiy holatni yozuvda ifodalash o'ziga xos murakkablikni yuzaga chiqaradi. "Tovushlarni uslubiy qo'llash bilan bog'liq qonuniyatlarni yozuvda «aynan» ifodalash imkoniyati cheklangan. Biroq, talaffuz va bayon muvofiqligiga fonografik vositalar yordamida erishish mumkin»[3.27]. Fonografik vositalar ekspressiv vositalarning og'zaki nutqda intonasiya va urg'u orqali ifodalangan hissiyotlarni yozma shaklda ifodalashda qo'llanadigan vositalardir. Tilshunos olim A.Haydarov, "grafostilistik vositalardan foydalanish muallif strategiyasining imkoniyatlarini namoyish etishdir" , deb ta'kidlaydi.[11.19-22]

Rus tilshunosi L.I.Eremina, "badiiy nutqda so'zlardagi unli va undosh harflarni qoidaga zid ravishda turli shakllarda yozish, bir o'rinda 'ir tinish belgisini birdan ortiq qo'llash, shuningdek, boshqa turli ishoraviy belgilardan foydalanish muhim uslubiy ahamiyatga" ega ekanligini ta'kidlaydi.[12.77]

O'zbek tilshunosligida fonografik vositalar bo'yicha yirik hajmda tadqiqot olib borgan tilshunos olim G. Yaxshieva, fonografik uslubiyatga "talaffuzning uslubiy imkoniyat va xususiyatlarini yozma nutqda aks ettirish yo'l va usullarini, shuningdek, yozma nutqning grafik(imloviy) uslubiy imkoniyat va xususiyatlarini dialektik birlikda o'rganuvchi va o'rgatuvchi umumiy uslubiyatning bir bo'limidir", deb izoh beradi.[14.30]

A.Haydarov matn bo'laklarini abzas bilan yozish, harflarni bosh va kichik yozish, turli kattalikda yozilgan harflarni ishlatish, ayrim so'z va matn bo'laklarini kursiv bilan yozish, she'r qatorlarini pog'onalar yozish, she'r qatorlaridan birini tushirib qoldirish, uning o'rniga qator nuqtalar yozish, matnda turli tinish belgilaridan uslubiy maqsadda foydalanish kabilarni "sof grafik vositalar" deb nomlaydi. Grafik o'zgarishlar nafaqat talaffuzning o'ziga xos xususiyatlarini, balki urg'uli so'zlarni ta'kidlash, ta'kidning intensivligini ifodalash uchun ham ishlatiladi.

Tilshunos olim M. Yo'ldoshev badiiy matn fonetik-fonologik xususiyatlarini lingvopoetik tahlilga tortishda badiiy matnda fonetik usullar bilan ta'minlanayotgan ekspressivlik – fonopoetik hodisalar sifatida 1.Alliteratsiya (undoshlar takrori) 2. Assonans (unlilar takrori) 3. Geminatsiya (undoshlarni qavatlash) 4. Unlilarni cho'zish 5. So'zlarni noto'g'ri talaffuz qilish 6. Tovush orttirish 7. Tovush tushirish kabi fonetik hodisalarning ekspressivlikka aloqasi, ularning poetik aktuallashuvi masalasini nasriy va she'riy asarlardan keltirilgan misollar orqali dalillaydi.[3.27] Ushbu fikrlarga qo'shimcha tarzda 1.Tovush o'zgarishi hodisalari - assimilyatsiya, dissimilyatsiya 2. Evfoniya (tovushlar takrorining aralash tiplari) 3.Onomatopeya 4. Paronamaziya hodisalarining ham fonopoetik vositalar qatoriga kiritish mumkin deb hisoblaymiz. Hamda ushbu fonopoetik vositalarning badiiy adabiyot tilida – she'riyat va nasr misolida, emosional-ekspressivlik va badiiylilikni ta'minlovchi unsurlar sifatida tahlil etish mumkin.

Ushbu tadqiqotimizning ob'ekti bo'lgan A.Obidjon she'riyatida ham muallif qahramonlar ruhiyatidagi ichki hayajon, xursand bo'lish, xafa bo'lish, rozilik, taajjub, yalinish, hayratlanish, kinoya, piching, kesatiq, olqish, so'roq, ta'kid, qoniqmaslik, norizolik, tilak-istak, qo'llab-quvvatlash kabi holatlarni aynan berishda yuqoridagi barcha fonopoetik vositalardan unumli foydalanganini ko'rish mumkin.

Ushbu maqolamizda muallifning fonografik usullardan foydalanish mahoratiga to'xtalmoqchimiz. Masalan, unli yoki undoshlarni birdan ortiq yozish usuli:

1.Unlilarni birdan ortiq yozish. Bunda unlini cho'zib talaffuz qilinganligi tushuniladi. Unlini cho'zib talaffuz qilish orqali qahramonning voqelikka munosabati oydinlashtiriladi. Ilmiy adabiyotlarda mazkur usul orqali belgining me'yordan kuchsiz yoki ortiq ekanligini ifodalashda foydalanilishi ta'kidlanadi.[8.43]

Belgining kuchsizligi. Anvar Obidjonning "Kayfiyat" she'rida:

*"Nelar haqda kuylar chigirtka,  
U ham ishqdan kuyganmi yohud?  
O'tiribman cho'mi-i-i-b sukutga,*

*Aytolmasdan dardim men noshud."*[15.22] Qahramonning dard bilan, chigirtka chirillashidan allalanib, sukutga cho'mishi tasviri "cho'mi-i-i-b" so'zida unlilarni birdan ortiq yozilishi, cho'zib o'qilishi bilan yanada yorqinroq ifodalanmoqda. She'rda unlilarning bitta yozish o'rniga 3 ta yozilishi she'r ritmining bo'zilisiga sabab bo'layotganday tuyulsa-da, aslida sokin ohangni hosil qilmoqda.

*"Bolalikda chaqnab qarog'im,  
"Ona!" – dedim yoygancha quloq,  
"Yorim!" – dedim yigitlik chog'im,  
"Yurti-i-i-m..." – dedim,*

*Qorga do'ngach soch."* [15.41] Bu misolda ham unlilarning birdan oshiq yozilishi, "yurti-i-im" so'zidan keyin ko'p nuqtaning qo'yilishi hamda qahramonning kuchdan qolib, qarilik chog'idagi xitobi bo'lgani uchun talaffuzdagi kuchsizlik belgisini ifodalab kelmoqda.

Belgining ortiqqligi.

*"Bu kech yedim tushimda*

*Sutdek o-oppoq kulchani."* [15.31] Bu misolda kulchani oqligi sutga o'xshatilishi, sutdek oq emas, oppoq oq oq darajasining qo'llanilishi ustiga "o" unlisining birdan oshiq yozilishi bilan belgi kuchaytirilmoqda.

*"Menmi? E, men shunchaki*

*Tushgim kelmas tulpordan.*

*Ko'rib dovrug' solganing*

*Chiqsam bas **bi-i-r** xumordan...* [15.55]

Bu misolda muallifning "Yosh shoirga" sarlavhali she'rining oxirgi misrasidan bo'lib, ustozning tulpor ustida shogirdi dovrug'idan faxrlanib, "bi-i-r" xumordan chiqayotgani tasviri "i" unlisining birdan oshiq yozilishi orqali yanada yorqinroq ifodalanib, belgi kuchaymoqda.

Shuningdek, badiiy matnda unilarni birdan ortiq yozish usulidan qahramonning biror nimadan hayratlanishi, qo'rqishi, taajjubga tushishi, iltimos qilish, qo'rqitish kabi holatlarini ifodalashda ham foydalaniladi. Masalan, qo'rqitish uchun:

*"**Vaqa-a! Vaqa-a!** Birontang ham joyingdan **qimirlama-a-a-a!**"* [16.25];

*"**Qo'rqma-a**, hozir qornim **to'-o'-q**. Senlarni ochqaganimda **yeyma-a-a-n**."*

*"**Ha-a**, qo'lga tushding-ku! **Yeyma-a-n!** Go'shtingni **titvorama-a-n!**"*

Qo'rqish:

*"Voy **do-o-d!***

*Endi quridi sho'rim,*

*Yordam bersang-chi, Bo'ri!"* ;

*"Endi senga **tegmayma-a-n**.*

*Dushmanlaringni yoyman **xolo-o-s**. Voy vaq **v-a-a-q!**"*

Iltimos, yalinish ohangini kuchaytirish:

*"O'tinib **so'rayma-a-n**, meni **qo'yvo-o-r!**";*

*"Rahming **kelsi-i-n**, **iltimo-o-s!**"* [16.30]

Afsus, nadomat ohangini:

*"Ichdim suvsar qonini,*

*Vijdonim qani?*

*Oldim kaptar jonini,*

*Vijdonim qani?*

***Qa-a-a-ni?**"* [16.13] Muallifning "Qorinbotir" she'riy dramasiidan keltirilgan ushbu parcha asar qahramoni Shoir-Qoplonning o'z-o'zini malomat qilayotgan holatini, nutqining ohangini mohirona bayon qilmoqda. "Qa-a-a-ni" so'zidagi "a" unlisining uch karra takrorlanishi va "i" unlisining bir martagina yozilishi, qolaversa, "i" so'z oxiridagi qisqa unli bo'lgani uchun bu so'z-gap qanday ohangda o'qilishi, ijro etilishi kerakligi muallif tomonidan aniq ko'rsatib qo'yilganini ko'rish mumkin.

Ta'kidlash, kinoya ohangi:

*"Assalomu alaykum, shohim!*

*Va alaykum **assalo-o-m**."* [16.6]

*" – **Be-e!** Askaring bari betasir.*

*Bu yoqmasa bo'laqol vazir!"*

Mazkur fonografik usuldan badiiy matnda xitob, chaqirish, da'vat, tinglovchi e'tiborini jalb qilish kabi maqsadlarda ham foydalanilishini kuzatish mumkin. Masalan:

*"Mushtoqlaring kamaygan sayin,*

*Sog'inarsan kutishlarimni.*

*Itingga non tashlab atayin:*

*"**Qoplonjo-o-o-n**", deb o'tishlarimni."* [15.22]

*"Beh, Olapar!*

***Olapa-a-a-r!!!**" – deya*

*Izillaydi jovdirab har yon.* [15.132]

*"**Quyjonjo-o-n!** Yordam **beringla-a-r!**"* [16.2]

Unli tovushlarning birdan ortiq yozish bilan ma'lum bir unlining cho'ziqroq talaffuz etilishi ko'rsatilar ekan, bu cho'ziqlik stilistik jihatdan ahamiyatli hisoblanadi. Bunday tovush fonemaning stilistik varianti deb ataladi. O'zbek adabiy tilida unilarning cho'ziq-qisqa talaffuzi fonologik jihatdan ahamiyatsiz hisoblanadi. Cho'ziqlik gapiruvchining his-hayajonini ko'rsatuvchi fonetik-stilistik belgidir." [13.37]

2.Undoshlarni birdan ortiq yozish. Aslida orfoepik me'yor bo'yicha bir undosh talaffuz qilinishi kerak bo'lgan so'zlar muayyan vaziyatlarda ekspressiya va estetik maqsad talabi bilan atayin qavatlab talaffuz qilinadi. "So'zlovchining ichki ruhiyati (siqilish, xursandlik kabilar) va maqsadini kitobxonga «aynan» yetkazish uchun yozuvchilar badiiy matnda bu holatni undoshlarni

birdan ortiq yozish orqali ifodalashga harakat qiladilar"[3.27]. Bunda belgining me'yordan ortiq, harakatning davomiyligi yoki oniyliigi (bir onda ro'y berganligi), takroriyliigi, tovush kuchining balandligi yoki pastligi kabi ma'nolar ifodalangan bo'ladi.

Belgining ortiq. Masalan, A.Obidjonning bir misra-qatordangina iborat "Ignabarg she'rlar"idan birida: "Qo'li is-s-siq, qarashi sovuq." Qarashi – nigohining qanchalik sovuqligini ifodalash uchun issiq so'zini qarshilantirish, uning tarkibidagi "s" harfini uchta yozish bilan ham belgi kuchaytirilmoqda, ham "s-s-s" – ilon tovushiga taqlid qilgandek, bir misragina she'rda chuqur ko'chma ma'no anglatishga sabab bo'lmoqda.

Harakatning davomiyligi.

"Ichi yorug',

Tomidan

O'tmaydi chakka.

Havas qildi chigirtka:

-**Chir-r-roylikku ja**"[15.191] Bolalar uchun yozilgan "Guldor pufakcha" she'ridan olingan bu parchada "chiroylik" so'zidagi "r" tovushining uchta yozilishi bilan chigirtka tovushiga taqlid bo'lgan "chir" tasviriy so'ziga ishora qilinib, 3 ta "r" titroq tovushi ovozning davomiyligini ifodalamoqda.

"Guldor pufakcha" – 10 bandlik, bolalar uchun hazil she'r bo'lib, uning deyarli har bir misrasida turli poetik birliklarni kuzatish mumkin:

"Xo'kiz aytar:

- Uy emas,

**Mo'-o'-jiza, qarang!**

"E-ha, e-ha!" – der Eshak

Bo'lib hangu mang.[15.191]

Shuningdek she'rda qurbaqa tilidan - *vaq, vaq-tim chatoq, qur-r-volardim men ham uy;* mushuk tilidan – *Px-x! deya;* xo'roz tilidan – *qup-quruq-ku bu;* echki tilidan– *E-e... Be-e...;* kuchuk tilidan - *Ir-r... Bir-r uyga kiray;* qarg'a tilidan – *qar-r... qar-r-shi bo'lmasang gar, ber-r-rayin, qag'-qag'* kabi fonopoetik bo'yoqdor so'zlar qo'llanilgan. Muallif badiiy tasvir vositalariga kiruvchi intoq – nutqlantirish san'atini fonopoetik hodisalar bilan shunday muvaffaqiyatli qo'llaganki, she'rdagi hayvon va qushlarni o'z ovozida, inson (o'zbek) tilida so'zlatgan. Unli va undosh tovushlarni 2-3 tadan yozish, so'zlarni bo'g'inlarga bo'lib yozish kabi fonografik vositalar bilan kitobxonni beihtiyor xayvon va qushlar obraziga kirishga undaydi, badiiy zavq va emosional-ekspressivlik yuzaga keladi.

"To'tining talabalari" she'rida:

"To'tiqushga yalinishdi

Qarg'a, Cho'chqa, It, Mayna:

Odamlardek gapirishni

Bizga ham o'rgat, oshna.

To'ti dedi: - Men roziman,

Mushkul ishdir bu garchi.

Qani, aziz talabalar,

"**Ar-r-rabaliq**" denglar-chi.

Qarg'a dedi: - **Qar-r-rabaliq!**

"**Ir-r-rabaliq**" dedi It.

"**Xur-r-rabaliq**" dedi Cho'chqa,

Mayna dedi: -**Vit-vit-vit...**" [15. ] Muallif "arrabaliq" so'zidagi qo'sh undoshni yana bittaga ko'paytirib, turli hayvonlar ovoziga taqlid tovushlarni qo'shgan holda talaba-hayvonlarni o'z ovozida "odamlardek gapirishi"ni o'quvchiga eshittirmoqni maqsad qilgan.

Ovoz kuchining pastligi.

"Yo', yo'... Qo'rqmang, o'lmayman,

Ko'p deysiz-ku havasim...

**Ix-x!** Tugmamni yechvoring...

Qisilyapti nafasim...

**Oy-y... joni-i-m...**" [15.31] "Kasal bola" she'rining oxirgi bandi bo'lgan ushbu parchada betob bolaning oyisiga past ovozda so'zlayotgani tasviri leksik va fonetik vositalar yordamida aniq ifodalangan. Nafasi qisilib, holdan toygan holatini tasvirlashda "ix-x" – ixragan tovushga taqlid, "oy-

y” – og’riqdan ingragandagi voyvoylash so’ziga ishora, “oy-y... joni-i-m” – oldingi 4 ta bandning oxirida takrorlanib kelgan “Oyijonim, yig’lamang” misrasiga ishora ham bor, ya’ni “oy-yijoni-i-m” yoki “oy-y...joni-i-m” tarzida ikki xil tushunilishi mumkin.

Talaffuzda undosh tovushlarni qavatlash, tovushlarni tushirish va tovushlarni almashtirish kabi hodisalar muhim ahamiyatga ega. Badiiy asarlarda personajlarning ruhiy holatini to’la namoyon qilishda mualliflar undosh tovushlarni cho’zishdan unumli foydalanadilar. She’riy asarlarda nasriy asarlarga qaraganda kamroq qo’llansa-da mahoratli shoirlar o’z she’rlarida undoshlarni cho’zish yordamida kuchli ekspressiv-emosional holatlarni ifodalaganlar. Masalan, A.Obidjonning “Betayin” she’rining oxirgi bandini lirik qahramoni tilidan:

*“Ko’ksingga bosh qo’yganim zamon,*

*Tuyuladi ham-m-masi yolg’on”* [15.146] misralari bilan yakunlaydi. Aslida hammasi so’zi imlosida “m” tovushi 2 ta, tovushni yana bittaga ko’paytirish va ular orasida chiziqchanning qo’llanilishi bilan undosh tovush cho’zilib, lirik qahramonning ruhiy holati aniqroq tasvirlanmoqda.

### XULOSA

Badiiy tasvirda she’rning mazmuni, ritmiga mos holda ishlatilgan fonopoetik vositalar kitobxon hissiyotiga kuchli ta’sir qiladi. U o’zini lirik qahramon o’rniga qo’yib uning holatiga tushadi. So’zdagi bir undoshning takrorlanish miqdori u ifodalab kelayotgan ekspressiv bo’yoq miqdorini belgilab beradi. So’zda bir undosh qancha ko’p takrorlansa va u grafik jihatdan yozuvda shunday ifodalangan bo’lsa, ekspressiya darajasi ham ortiq ekanligi ko’rinadi. So’zda konnotativ ma’no fonetik vositalar bilan ham darajalanib borish xususiyatiga ega. Undosh tovushlarning cho’zilishi og’zaki nutqda ularni qo’sh undosh holatiga keltirib talaffuz qilish, yozma nutqda esa ikkilantirib yozish orqali ro’yobga chiqariladi.

### ADABIYOTLAR RO’YXATI (REFERENCES)

1. Гальперин И.П. Стилистика английского языка.- М.: 1981.- С.113.( Galperin I.R. Stylistics of the English. – M.: 1981.- P.113.)
2. Артюшков А. Стихovedение. Качественная фоника русского стиха. – М.:1927.- С.97.( Artyushkov A. Poetry. Qualitative phonics of Russian verse. - M.: 1927.- P.97.)
3. Yuldashev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. –Toshkent:Fan, 2006. B.26.( Yuldashev M. Basics of literary text and its linguopoetic analysis. -Tashkent: Science, 2006. P.-26.)
4. Karimov S. O’zbek tilining fonetik stilistikasi. –Samarqand, 2016.- B.15.( Karimov S. Phonetic stylistics of the Uzbek language. -Samarqand, 2016.- B.15.)
5. Doniyorov X., Yo’ldoshev B. Adabiy til va badiiy stil’. – Toshkent: «Fan», 1988. – B.75. ( Doniyorov H., Yoldoshev B. Literary language and artistic style. - Tashkent: "Fan", 1988. - P. 75.)
6. Kilichev E. O’zbek tilining praktik stilistikasi. – T.: “O’qituvchi”, 1985. – B. 88.( Kilichev E. Practical stylistics of the Uzbek language. - T.: "Teacher", 1985. - P. 88.)
7. Шомаксудов А., Расулова И. Ўзбек тили стилистикаси.-Т.:1983. – B. 7. (Shomaksudov A., Rasulova I. Stylistics of the Uzbek language. T.: 1983.P.7.)
8. Abdullaev A. O’zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi.-T: «Fan», 1983. B.43.( Abdullaev A. Expression of expressiveness in the Uzbek language.-T: "Fan", 1983. P.43.)
9. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug’ati. -T.: 2002. – B.123. ( Hojiev A. Annotated Dictionary of Linguistic Terms.T.: 2002. P.123.)
10. Голуб И.Б. Стилистика современного русского языка. – М.: “Высшая школа”, 1986.- С.259-260.( Golub I.B.Stylistics of the modern Russian language. - M.: "Higher School", 1986.- P.259-260.)
11. Haydarov A.A.Yozuv bilan bog’liq uslubiy xususiyatlar.(ilmiy-amaliy anjuman materiallari to’plami).-Buxoro: 2020.- B.19-22.( Haydarov A.A. Methodological features related to writing. (a collection of scientific and practical conference materials).- Bukhara: 2020.- P.19-22.)
12. Еремина Л.И. Графика – как средство изобразительности в произведениях. Л.Н.Толстой//Сб.стат.Очерки по стилистике художественной речи. – М.:1979. –С.77-113.( Eremina L.I. Graphics - as a means of inventiveness in works. L.N. Tolstoy//Sb.stat.Essays on the style of artistic speech. - M.: 1979. –P.77-113.)
13. Baskakov N.A., Sodiqov A.S., Abduazizov A.A. Fonetika va fonologiya. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent: «O’qituvchi», 1979. – B.37.( Baskakov N.A., Sodikov A.S., Abduazizov A.A. Phonetics and phonology. General linguistics. - Tashkent: "Teacher", 1979. - P.37.)
14. Yaxshieva G. O’zbek tilida fonografik uslubiy vositalar. – T.: Fan.1996.-B.30. ( Yakhshieva G. Phonographic Methodological Tools in the Uzbek language. - T.: Science. 1996.-P.30.)
15. Obidjon A. Saylanma:she’rlar.- Toshkent: Akademnashr, 2017.- B.22.( Obidjon A. Selected Works: Poems.- Tashkent: Academy